XALQ DEPUTATLARI VOBKENT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko'chasi 55-uy, tel: (65) 33-22-131

2022 - yil 1 - avgust VI-72-195-2-33-K/22 Vobkent tuman hokimligi

Vobkent tumani mahalliy budjetining 2022-yil II chorak daromadlar rejasidan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag'larni yo'naltirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-sonli "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorining 8-bandiga hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi KQ-331-IV-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi Namunaviy nizomning 11-bandiga asosan tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' yo'naltirish bo'yicha tuman hokimligining takliflari jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun 10 kun muddatda "E-qaror" elektron tizimiga joylashtirish belgilangan.

Shuningdek, jamoatchilik fikrini inobatga olib, shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha takliflarga asosan O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risidagi Qonuni hamda Budjet kodeksining tegishli moddalariga asosan tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' yo'naltirish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-sonli va Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli

qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-742-sonli “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Budjet kodeksining 12-, 27-, va 126-moddalariga asosan tuman hokimligi tomonidan taqdim etilgan tuman mahalliy budjetining 2022-yil II chorak daromadlar rejasidan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish bo‘yicha takliflarini muhokama qilib, Xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman hokimligining, tuman mahalliy budjetining 2022-yil II chorak daromadlar rejasidan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni 1-ilovaga muvofiq yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

Shuningdek, tuman hokimining hisobotiga asosan budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarni saqlash xarajatlari hamda budjetda ko‘zda tutilmagan boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarga ajratilgan tuman mahalliy budjetining 2022-yil II chorak daromadlar rejasidan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘lari 2-ilovaga muvofiq inobatga olinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Malikov, tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Barotov) bilan birgalikda:

- mazkur qarorning 1-2-ilovalariga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimining tegishli farmoyishi loyihasini bir hafta muddatda tayyorlash;

- O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-742-sonli “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlarni kiritish;

- ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalari ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

3. Tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Navro‘zov) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi mahalliy budjetlarining har chorak oxiri bilan daromadlar rejasining orttirilgan qismi mablag‘larini birinchi navbatda, ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarga hamda “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga yo‘naltirilishini ta’minlasin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tuman hokimligi bilan birgalikda qo‘shimcha manbalarning 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarga yo‘naltirish uchun “Ochiq budjet” tizimi to‘g‘risida aholini xabardor qilish va ularning ushbu tadbirlarga faol ishtirokini ta’minlash maqsadida joylarda tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Malikov zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Vobkent tuman
Kengashining
2022 yil 1 avgustdagi
VI-72-195-2-33-K/22-son qaroriga
1-ilova

Vobkent tumani mahalliy budjetining 2022-yil II chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘lar

MIQDORI

ming.so‘mda

№	Tadbirlar nomi	Ajratil-gan mablag‘ miqdori	Izoh
1.	Yoshlar daftari uchun (15%)	235500,0	Hukumat topshirig‘i
2.	Ayollar daftari uchun (15%)	235500,0	Hukumat topshirig‘i
3.	Jamoatchilik fikriga asosan (30%)	471000,0	Hukumat topshirig‘i
4.	Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ijtimoiy qo‘llab-quvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarga (3%) yo‘naltirish.	47000,0	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-oktyabrdagi PF-6324-sonli Farmoni
5.	Daraxtlar va butalarning zararkunandalar hamda kasalliklarga qarshi kurashish tadbirlari uchun (2%)	31000,0	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-sonli Farmoni
	JAMI	**1020000,0**	X

Xalq deputatlari Vobkent tuman
Kengashining
2022 yil 1 avgustdagi
VI-72-195-2-33-K/22-son qaroriga
2-ilova

Budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarni saqlash xarajatlari hamda budjetda ko‘zda tutilmagan boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarga ajratilgan tuman mahalliy budjetining 2022-yil II chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari

MIQDORI

ming.so‘mda

№	Tadbirlar nomi	Ajratil-gan mablag‘ miqdori	Izoh
1.	Tuman hokimligi apparati, xalq deputatlari tuman Kengashi hamda xalq qabulxonasi ishchi xodimlariga oziq-ovqat to‘lovlarini moliyalashtirish uchun. *(iyun-iyul-avgust oylari)*	160000.0	Tuman hokimining 31.12.2019-yildagi 9782-sonli qarori
2.	“Yoshlar hiyoboni” atrofini yoritish maqsadida tayanch ustunlarini xarid qilish uchun.	71000,0	Hukumat topshirig‘i
3.	Banner peshlavhalari xarajatlari uchun.	20000,0	Hukumat topshirig‘i
4.	Tuman madaniyat bo‘limiga madaniyat va san’at sohasida yoshlarni o‘qitish xarajatlari uchun.	1000,0	Hukumat topshirig‘i
	JAMI	**252000,0**	X